

OILA PSIXOLOGIYASI

Andijon davlat pedagogika instituti V.B. dotsenti

O‘.Vahobova

Filologiya fakulteti talabasi

Olimova Marhaboxon

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila psixologiyasining nazariy asoslari, oilaviy munosabatlarning shakllanishi va ularning inson ruhiy holatiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ota-onalar va bola o‘rtasidagi psixologik munosabatlar, turmush o‘rtoqlar orasidagi ijtimoiy-psixologik muvozanat, ziddiyatlar va ularning yechimlari haqida so‘z yuritiladi. Maqola zamonaviy psixologik nazariyalar hamda amaliy tadqiqotlar asosida yozilgan.

Kalit so‘zlar: oila psixologiyasi, munosabatlar, muvozanat, psixologik tahlil, konflikt, yechim

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы семейной психологии, формирование внутрисемейных отношений и их влияние на психическое состояние человека. Особое внимание уделяется психологическим отношениям между родителями и детьми, а также социально-психологическому равновесию между супругами, конфликтам и способам их разрешения. Работа основана на современных психологических теориях и практических исследованиях.

Ключевые слова: семейная психология, отношения, равновесие, психологический анализ, конфликт, решение.

Annotation: This article explores the theoretical foundations of family psychology, the development of intra-family relationships, and their impact on an individual's mental well-being. It highlights the psychological interactions between parents and children, as well as the socio-psychological balance between spouses, addressing conflicts and their

resolution. The study is based on modern psychological theories and empirical research findings.

Keywords: family psychology, relationships, balance, psychological analysis, conflict, resolution.

¹ Oila psixologiyasi zamonga xos tarzda yangi bilimlar bilan jadal rivojlanib borayotgan, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy barqarorlik uchun kerak bo'lган ilmiy fanning amaliy sohasidir. Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning o'z faoliyatlarida oilaviy hayot va undagi murakkab o'zaro munosabatlarning qonuniyatları, mexanizmlari va oilaga psixologik xizmat ko'rsatish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Zero, oila psixologiyasi fan tarmog'i sifatida bo'lg'usi pedagoglar tomonidan o'zlashtirilishi ularning professional mahoratlarini o'stirish, mustaqil oilaviy hayotga tayyor bo'lishlari va fuqarolik jamiyatining yoshlarini oilani muqaddas bilishga o`rgatish orqali ularni ma'naviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

² Oila psixologiyasi ijtimoiy psixologiyaning bir tarmog'i sifatida XX asrning oxirlariga kelib shakllangan . XXI asrga kelib esa uning inson hayotidagi ahamiyati va jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirishdagi roli yanada sezila boshladi. Zero, dunyoning qator mamlakatlari, jumladan, rivojlangan davlatlarda ham oila va nikoh munosabatlardagi bohron, psixoterapevtlar yordamiga muhtojlik kabi holatlar ushbu maskanning muammolarini o'rganish va shu yo'nalishda maqsadli tadqiqotlar, ilmiy-amaliy tadbirlarni amalga oshirish lozimligini uqtirmoqda. Oilaviy munosabatlар psixologiyasi va ushbu masalaga qarashlar tarixidan shu narsa ayon boldiki, inson, uning kim bilan va qanday yashashi muammosiga qiziqish qanchalik uzoq o'tmishga borib

¹ Kitob nomi: Oila psixologiyasi
Mualliflari: V.M. Karimova, N.Sh. Umarova
Nashr yili: 2020

Nashriyot: Chirchiq
Sahifalar soni: 157

² Karimova, S. (2022). Oila psixologiyasi mustaqil fan sifatida: oilaviy munosabatlarni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, oilaviy psixologiyaning tadqiqot metodlari. Ilmiybaza.

taqalsa, oila psixologiyasining fan tarmog'i sifatida shakllanishi shunchalik navqiron va yosh bolib, uning shakllanishi yangi davrga tog'ri keladi.

Oila psixologiyasi fan sifatida oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urug'chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a'zolari ijtimoiy xulqining namoyon bolishini organadi. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy tarmog'i sifatida u nikohga oid ustanovkalarni, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning – mehribonlik, g'amxorlik, hamdardlik, hamjihatlik, tobelik, bo'ysunish, yetakchilik kabi o'ziga xos qirralarini, oilaviy rollar taqsiomti va o'zaro ta'sirning jinsga oid qonuniyatlarini, ota-onalar va farzandlar, yaqin qarindosh urug'lar ortasidagi hissiy-emotsional bog'liqlikni, oilaviy rozg'or yuritish va turmush tarzini tashkil etishga bog'liq bolgan psixologik jarayonlarning kechishini tadqiq etadi, o'rganadi. Oilaviy hayot psixologiyasi, shunday qilib, insonlarning qanday qilib o'zaro qovushishlari, birgalikda yaxshi niyat bilan oila – ro'zg'or yuritishlari, bahamjihatlikda hayot kechirishlarini o'rganuvchi fan tarmog'idir.

Xulosa qilib aytganda, oila psixologiyasi zamonaviy jamiyatda inson shaxsining barkamol rivojlanishi, sog'lom ijtimoiy muhit va mustahkam ma'naviy qadriyatlar asosida shakllanishida muhim o'rinnegallaydi. U nafaqat oilaviy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganadi, balki sog'lom, barqaror va baxtli oilani shakllantirishda psixologik ko'makni ta'minlaydi. Shu boisdan, bu fan yo'nalishi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar bugungi kunda nafaqat ijtimoiy, balki ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Oila psixologiyasining chuqur o'rganilishi va amaliyotda qo'llanishi sog'lom jamiyat poydevorini yaratishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar (manbalar):

1. Bowen, M. (1978). Family Therapy in Clinical Practice. Jason Aronson.
2. Minuchin, S. (1974). Families and Family Therapy. Harvard University Press.
3. Олшевская, А.Ю. (2012). Семейная психология. Москва: Академия.

4. Назарова, З.Х. (2019). Oilaviy psixologiya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
5. American Psychological Association (APA) – www.apa.org – oilaviy munosabatlar va ruhiy salomatlik bo‘yicha ilmiy maqolalar.